

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS  
INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING BUGUNGI  
KUNDAGI ZARURATI HAMDA AHAMIYATI

Narqulova Muqaddas

Urganch davlat tibbiyot instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Email: [gum\\_kafedra@mail.ru](mailto:gum_kafedra@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etishning zarurati, inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, shuningdek, buning istiqboldagi ijobiy natijalari xususida atroflicha so'z yuritilgan.

**Аннотация.** В статье подробно рассматривается необходимость создания системы инклюзивного образования для обучения лиц с особыми образовательными потребностями, приоритетные направления развития системы инклюзивного образования, а также её позитивные будущие результаты.

**Annotation.** This article discusses in detail the need to establish an inclusive education system for educating individuals with special educational needs, the priority areas for developing an inclusive education system, as well as its positive future results.

**Kalit so'zlar.** Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxs, inklyuziv ta'lim, sensor nuqson, "Maxsus pedagogika", reabilitatsiya, jamiyatga integratsiyalashuv.

**Ключевые слова.** Человек с особыми образовательными потребностями, инклюзивное образование, сенсорные нарушения, «Специальная педагогика», реабилитация, интеграция в общество.

**Keywords.** Person with special educational needs, inclusive education, sensory impairment, "Special pedagogy", rehabilitation, integration into society.

Ta'lim sohasi ijtimoiy hayotning muhim tarmog'i bo'lib, har bir ta'lim olish istagidagi shaxslarning xohishlarini qo'llab –quvvatlash hamda ularning ta'lim olishlari uchun zarur shart –sharoitlarni yaratish dolzarb hisoblanadi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga muvofiq ta'lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);

dual ta'lim;

oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;

katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;

inklyuziv ta'lim;

eksternat tartibidagi ta'lim;

mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Bugungi kunda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, ularning ta'lim olish huquqini kafolatlash va ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan qator normativ –huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliyotga joriy qilinmoqda.



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadi — ta'lim olish uchun teng imkoniyatni ta'minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta'lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'iy nazar ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari:

inklyuziv ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish:

pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim dasturlarini joriy etish, inklyuziv ta'lim metodikasiga oid o'quv materiallarini takomillashtirish;

inklyuziv ta'lim berishning zamonaviy nazariyalarini o'zlashtirish, inklyuziv ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarini tashkil etish hamda ta'lim berishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashga sharoit yaratish;

o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona, jamoat tashkilotlari mutaxassisleri, keng jamoatchilik uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar va ommabop nashrlar yaratish;

pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining "Maxsus pedagogika" ta'lim yo'nalishi bo'yicha qabul parametrlarini oshirish, Xalq ta'limi vazirligi tavsiyasi asosida pedagog xodimlarga ehtiyoji katta bo'lgan chekka hududlardagi abituriyentlar uchun maqsadli qabul ko'rsatkichlarini belgilash mexanizmini joriy etish;

inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan umumta'lim muassasalarida yosh o'qituvchilarni, ularning xizmat mavqeyi o'sishini hisobga olgan holda, kasbiy qo'llab-quvvatlash va hamkorlikda ishlash mexanizmini takomillashtirish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan pedagog xodimlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish kabilardan iborat.

Yuqorida sanab o'tilgan ustuvor vazifalar amalga oshirilishi natijasida:

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarning rivojlanishi, rehabilitatsiyasi, jamiyatga integratsiyalashuvida inklyuziv ta'limning strategik omil sifatidagi roli tasdiqlanadi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'limiy muhiti yaxlitligi mustahkamlanadi, ularning jamiyatga integratsiyasi uchun zarur sharoitlar ta'minlanadi;

davlat, jamiyat, shaxsning inklyuziv ta'lim sohasidagi manfaatlarini muvofiqlashtirish mexanizmlari yaratiladi;

inklyuziv ta'lim tizimining umumiy qulayligi, uzluksizligi, ta'lim sifati, shuningdek o'quvchilarning rivojlanish darajasi, xususiyatlariga moslashuvchanligi va variativligiga erishiladi;



inklyuziv ta'lim sohasidagi xalqaro munosabatlar doirasida o'zaro hamkorlik aloqalari mustahkamlanadi;

o'quvchilar ta'limiy ehtiyojlarning o'ziga xosligini inobatga olgan holda sifatli ta'lim olishi uchun ular davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi;

inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari optimallashtiriladi, ularda ta'lim olayotgan o'quvchilarning teng huquqli jamiyat a'zosi sifatida umumta'lim muassasalarida bilim olishi ta'minlanadi;

pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi va bularning barchasi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarning manfaatlarini uchun xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)

2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 01.02.2024-y., 03/24/901/0082-son; 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son; 05.11.2024-y., 03/24/990/0892-son; 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son)

3. "2020 — 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish" konsepsiyasi. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020-y., 07/20/4860/1383-son)